

2026-yil 24-aprel

Ichki bozorda mineral o'g'itlar ta'minoti: 2026-yilning birinchi choragi yakunlari

Ichki bozorda mineral o'g'itlar ta'minoti

2026-yil 1-chorak yakunlari



Zaxiralar (2026-yil 1-aprel): **Jami: 136,7 ming tonna**



2026-yilning yanvar-mart oylari davomida respublika ichki bozorida mineral o'g'itlar savdosi barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etdi. Birja savdolari orqali jami sof holda 239,1 ming tonna

mineral o'g'itlar sotilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining talabini ta'minlashga xizmat qildi. Sotilgan o'g'itlar tarkibiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asosiy ulushni azotli o'g'itlar tashkil etib, ular 190,7 ming tonnaga yetdi. Shuningdek, fosforli o'g'itlar hajmi 25,6 ming tonna, kaliyli o'g'itlar esa 22,8 ming tonnani tashkil qildi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatda ekin maydonlarini oziqlantirish va hosildorlikni oshirish borasidagi ishlar izchil davom etayotganini ko'rsatadi.

2026-yil 1-aprel holatiga ko'ra, mineral o'g'itlar zaxiralari ham yetarli darajada shakllantirilgan. Jumladan, korxonalarining texnologik hamda hududlardagi ijara omborlarida jami 136,7 ming tonna o'g'it mavjud. Ularning 96,5 ming tonnasi azotli, 14,9 ming tonnasi fosforli va 25,2 ming tonnasi kaliyli o'g'itlardan iborat.

Mavjud zaxiralar bahorgi dala ishlarini uzluksiz olib borish, fermer va dehqon xo'jaliklarini o'z vaqtida mineral o'g'itlar bilan ta'minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, birja savdolari orqali ochiq va shaffof taqsimot mexanizmining yo'lga qo'yilgani bozor barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Kelgusi oylarda ham mineral o'g'itlar ishlab chiqarish va yetkazib berish hajmlarini oshirish, zaxiralarni muntazam to'ldirib borish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida yuqori hosildorlikka erishish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/ichki-bozorda-mineral-o-g-itlar-ta-minoti-2026-yilning-birin>